

ABDULHAMID CHO'LPON IJODINING O'ZBEK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

Raximov Xurshidbek Mansurbek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yorqin vakili, yozuvchi, adib, shoir, tarjimon hisoblanmish Abdulhamid Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li Cho'lpon ijodining rang-barangligi, alohida ahamiyatga egaligi hamda o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Abstract: This article discusses the diversity, special significance, and role and significance of the work of Abdulhamid Sulaymonqul Mullah Muhammad Yunus oglu Cholpon, a prominent representative of the Jadid movement, writer, literary figure, poet and translator.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, jadid, Abdulhamid Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li Cho'lpon, o'zbek adabiyoti, milliylik, ma'rifatparvar, taraqqiy, yuksalish, roman, she'r, maqola, adib, shoir, yozuvchi, tarjimon.

Key words: Jadid movement, Jadid, Abdulhamid Sulaymonqul Mullah Muhammad Yunus oglu Cholpon, Uzbek literature, nationalism, enlightenment, progress, rise, novel, poem, article, writer, poet, writer, translator.

Adabiyot har bir xalqning o'tmishini, milliyligini, o'zligini ifodalaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev:¹ **"Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat tinch-totuv yashaydi"** degan jumalari ham buning yorqin namunasidir. Darhaqiqat, xalqning tinch va osuda hayot kechirishi uchun adabiyotning o'rni beqiyosdir. O'zbek adabiyoti ming yillik tarixga ega. Yaqin o'tmishga yuzlanadigan bo'lsak, XIX asr oxiri XX asrlar davomida Turkiston xalqi tahlikali vaziyatda yashagan bo'lishiga qaramay adabiyot to'xtab qolmadi. Jadidchilik

¹ <https://www.xabar.uz/post/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va?category=madaniyat>.

harakati deya nom olgan o'zbek xalqining fidoiy farzandlari milliy adabiyotimiz rivojiga munosib hissalarini qo'shdilar. Bu borada ayniqsa, Abdulhamid Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li Cho'lponning:² **"Hech To'xtamasdan harakat qilub turg'on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar"**, degan qimmatli fikrlari muhimdir. Yana Abdulhamid Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li Cho'lponning:³ **"Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o'quylik. Adiblar yetishdirayluk, "adabiyot kechalari" yasayluq. Ruh, his, tuyg'u, fikr ong va o'y olayluq, bilayluk. Agarda "bayoz" va bema'ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahv-u inqiroziy bo'lurmiz. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo'lmayluk"**, degan jumalari ham adabiyotning jamiyat va davlat oldida asosiy o'rin egallashini bildirmoqda. Adib adabiyot orqali kishining qalbini eritish, o'z ona vataniga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish mumkinligini aytayotgandek go'yo! Yana shuni aytish joizki, Abdulhamid Cho'lpon ijodining markazida milliy ong, ozodlik, vatan va xalq taqdiri turadi. U she'rlari orqali o'zbek xalqini uyg'onishga, erkin fikirlashga chorlagan. Bu jihat jadid adabiyotining muhim belgisi sifatida baholanadi.

Shoir Abdulhamid Cho'lpon 1897-yil Andijon Qatortarak mahallasida Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li xonadonida dunyoga kelgan. Yoshligidan adabiyotga mehri uyg'ongan bo'lib mustaqil ravishda rus tilini o'rgangan. Jadid adabiyoti va matbuotini kuzatish orqali siyosiy-ijtimoiy bilimni oshirgan. Undan so'ng o'n yetti yoshidan jadid nashrlari bilan aloqa bog'laydi. Shoirning birinchi she'ri 1914-yilda "Sadoi Turkiston" ning 3-sonidan joy olgan **"Turkistonli qardoshlarimizga"** she'ridir. "Sadoi Farg'ona" gazetasida birin-ketin **"Qurboni jaholat", "Doktir Muhammadiyor"** hikoyalari chop etilgan. Hikoyalarda Turkiston hayotidagi qabohatni hamda ilmsiz yoshlarni huddi Do'xtir Muhammadiyor kabi ilm olishga chorlagan aks holda jaholat bo'lishi mumkinligi haqida ogohlantirgan. Ushbu maqolalari orqali milliy adabiyotga kichik hissa qo'shgan bo'lsada, **"Kecha va kunduz"** romani orqali o'zbek romanchiligida

² Abdulhamid Cho'lpon Zabardast media 2022

³ Abdulhamid Cho'lponning adabiyot haqidagi fikri

o'chmas iz qoldirdi. Ushbu roman milliy janrdagi o'zbek xalqining XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi hayotini aks ettirgan tarixiy asardir. Asardagi qahramonlar orqali o'zbek xalqiga xos bo'lgan fazilatlar yoritib berilgan. Roman bir asr oldin yozilishiga qaramasdan hali-hanuzgacha milliy asarlar reytingida yuqori o'rinlarni qayd etib kelmoqda.

Abdulhamid Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li Cho'lpon lirik merosi sifatida **“Uyg'onish”, “Buloqlar”, “Tong sirlari”** va **“Soz”** she'riy to'plamlarini keltirishimiz mumkin. Shoirning she'rlarida vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat, ozodlik, hurlik, erkinlik kabi g'oyalari ifodalangan bo'lib, yuksak mahorat bilan yoritib berilgan. Abdulhamid Cho'lpon birinchilardan bo'lib barmoq vaznida she'rlar yoza boshlagan. Buni adibning zamondoshi Abdurauf Fitratning: **“Barmoq vaznida she'rni boshlab Cho'lpon yozdimi yo men yozdimmi, esimda yo'q. Faqat shunisi aniqki, “barmoq” vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o'zbek millatchisi men edim”** degan gapidan ham sezish mumkin. Abdurauf Fitrat “barmoq” vaznini nazariy jihatdan yoritib bergan bo'lsa, Cho'lpon “Go'zal” she'ri orqali “barmoq” vaznida chiroyli she'rlar yozish mumkinligini isbotlab berdi. Quyidagi “Go'zal” dan olingan parcha buning yorqin namunasidir:

⁴Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,

Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.

Ul yulduz uyalib, boshini bukib,

Aytadir: “Men uni tushda ko'ramen.

Tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal,

Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!”

Abdulhamid Cho'lpon qisqa umrini faqat va faqat yurtiga, xalqiga hamda millatiga bag'ishladi. O'lka siyosiy hayotida muqim ishtirok etdi. Milliy adabiyotda o'chmas iz qoldirdi. Uning mashxur afarizimlarini hali-hanuzgacha dunyoning barcha xalqlari sevib

⁴ Abdulhamid Cho'lpon Zabardast media 2022

takrorlaydi. Afarizmlarning qimmatligi shundaki ular faqat o‘tmishda ishlatilgan oddiy bir balandparvoz gaplar emas aksincha, hozirgi kundagi ayni haqiqatlardir!

⁵Kishan kiyma,

Bo‘yin egma-

Ki, sen ham hur tug‘ulg‘onsen!

Yozuvchi Abdulhamid Cho‘lpon o‘zbek tarjima maktabiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Rus va boshqa xalqlarning mashxur yozuvchilarning asarlarini yuksak mahorat bilan tarjima qildi. Ya’ni Aleksandr Pushkinning “Boris Godonov”, “Dubrovskiy”, Nikoloy Gogolning “Tergovch”, I.S.Turgenovning “cho‘ri qizi”, I.Frankoning “Million”, “Feruza” L.Andreyevning “Gubernator”, “Osilgan yetti kishining hikoyasi”, A.P.Chexovning “Qochoq”, A.M.Gorkiyning “Ilgaklar”, “Ona” kabi hikoyalaridir. Abdulhamid Cho‘lponning aynan tarjima sohasiga qo‘l urganligining asosiy sabablaridan biri shundaki, adib inson qalbini eritish hamda ma’rifatga chorlashda jahon adabiyotining ahamiyati katta ekanligini chuqur his qilgan. Shu sababli ijodining ko‘pchilik qismini tarjima asarlari tashkil qiladi. Xulosa o‘rnida shuni keltirishimiz mumkinki, Abdulhamid Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o‘g‘li Cho‘lpondek o‘zbek adabiyotining millatparvar o‘g‘lonlari bor ekan, milliy adabiyotimiz rivojlanishdan hech qachon to‘xtamaydi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon “She’rlar, hikoyalar she’riy va nasriy tarjimalari” Zabardast media 2022-yil.
2. Abdulhamid Cho‘lpon Yoshlar nashriyot uyi Toshkent 2022-yil
3. Cho‘lponning badiiy olami. – Toshkent: Fan, 1994-yil.
4. Abdulhamid Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romani 1994-yil
5. <https://www.ziyouz.com/>;

⁵ Abdulhamid Cho‘lpon Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2022



6. <https://kutubxonachi.uz/>.